



O‘QUVCHI YOSHLARNING FUQAROLIK POZITSIYASINING KO‘RSATKICHLARI VA DARAJALARI

Orunbetov N.T.

Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI dotsent v.b., p.f.f.d. (PhD)

Tayanch so‘zlar: fuqaro, fuqarolik, fuqarolik pozitsiyasi, qadriyatlar, huquq, fuqarolik ta’lim, huquqiy tarbiya.

Ключевые слова: гражданин, гражданственность, гражданская позиция, ценности, право, гражданское образование, юридическое воспитание.

Key words: citizen, citizenship, civic stand, values, law, civic education, legal nurturing.

Резюме: Ushbu maqolada jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish masalalari, ayniqsa akademik litsey o‘quvchilarining huquqiy ta’lim-tarbiyasi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish asosida ularda fuqarolik tushunchasini, fuqarolik tuyg‘usini va fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish haqida so‘z etiladi.

Резюме: В статье рассматриваются вопросы повышения правосознания и правовой культуры в обществе, особенности развития понятия гражданства, чувства гражданственности и гражданской позиции у учащихся академических лицеев на основе правового образования и правовой культуры.

Summary: This article discusses the issues of raising legal awareness and legal culture in society, especially the development of the concept of citizenship, a sense of citizenship and civic position in academic lyceum students on the basis of legal education and legal culture.

Fuqarolik ta’limining mohiyati fuqaro va jamiyat birligini qaror toptirish, davlatning buguni va istiqbolini fuqaro va jamiyat manfaatlarining o‘zaro uyg‘unligi, bir butunligi asosida yaratish, qonun ustuvorligiga erishishdan iborat. Shu yo‘lda harakat qilayotgan Yevropa davlatlarida shaxsning fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishda milliy mental xususiyatlar ham inobatga olinadi. Yoshlar tomonidan fuqarolik sifatlarining o‘zlashtirilishida muammoli, rivojlantiruvchi va loyiha ta’limi texnologiyalarining didaktik imkoniyati yuqori baholanadi.

Bugungi kunda yoshlarning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini davlatning o‘zi asosiy qonunda kafolatlaydi [1]. Demak, yoshlar jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etish uchun faol fuqarolik pozitsiyaga ega bo‘lishlari kerak.


O‘quvchi yoshlarning fuqarolik pozitsiyaga egaliklarining asosiy ko‘rsatkichlari va darajalarini aniqlashdan oldin “fuqaroviylik”, “fuqarolik pozitsiya” tushunchalarini aniqlab olish zarur.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda “fuqarolik pozitsiya” tushunchalariga berilgan ta’riflarning xilma-xil bo‘lishiga qaramasdan ikki yondashuvni ajratib ko‘rsatish mumkin. Ularning birinchisida fuqarolik pozitsiya shaxsning integrativ xususiyati sifatida ta’riflanadi va u o‘z ichiga vatanparvarlik, siyosiy madaniyat, qonunlarga itoatkorlik, odob-axloq, mehnatsevarlik, ijtimoiy faollik (I.V.Molodsova [2], A.S.Nayazov, S.V.Mitrosenko, E.P.Strelnikova [3] va boshqalar)ni qamrab oladi. Ikkinchi yondashuv ushbu tushunchani axloqiy, huquqiy, ma’naviy kabi munosabatlarning turli xil jihatlarini o‘zida ifoda etadi (N.F.Kriskaya [4], T.I.Kobeleva [5], G.T.Sukolenkova va boshqalar).

Bugungi kunda o‘smir yoshdagi o‘quvchilarning fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, akademik litsey o‘quvchilarining fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish jarayoni alohida e’tiborni jalb etadigan masala hisoblanadi. Chunki XXI asr jamiyat va shaxs, jamoaviylik va individuallik, globallik va lokal(mahalliy)lik o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarning keskinlashuvi bilan tavsiflanadi. Bu keskinlashuv shaxs identifikatsiyasi, uning ushbu jamiyatning to‘laqonli a’zosi, o‘z mamlakatining fuqarosi, dunyo fuqarosi sifatida ijtimoiylashuvi jarayonida ham yaqqol namoyon bo‘ladi.

O‘quvchining fuqarolik pozitsiyasining shakllanishi muhit, jumladan uzoq va yaqin ijtimoiy muhit bilan o‘zaro ta’sir jarayonida shakllanadi va bunda o‘quvchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Bu o‘zaro ta’sirning xarakteri uning fuqarolik pozitsiyasi bilan aniqlanadi, uning asosiga shaxs qadriyatlari qo‘yilgan bo‘lib, ular jamiyat qadriyatlari bilan nisbatlanadi. Fuqarolik-huquqiy me’yorlarga mos ravishda jamiyat bilan munosabat qurar ekan, o‘quvchi umuman inson, boshqa inson, o‘z “Men”i to‘g‘risidagi bilimlar tizimiga tayanadi. “Inson – mutlaq qadriyat, oliy substansiya”, “barcha narsalar o‘lchami”. Inson dunyosi – bul odamlarning o‘zaro ta’siri. O‘zingning har bir xatti-harakatingda boshqa insonga munosabatni ko‘rishga va ifodalashga o‘rganish kerak» (V.A.Karakovskiy) [6]. Inson mutlaq qadriyat sifatida universal, u kishining millati bilan aniqlanmaydi va millatidan mustaqildir. Insonga oliy qadriyat sifatida munosabat qilish Vatn fuqarosiga ham, Dunyo fuqarosiga ham bir xil muhimdir.

Vatn – inson uchun yagona, unga taqdir inom etgan, ajdodlardan meros qolgan maskandir. Oila, xalq, til, madaniyat, tarix – Vatanning tarkibiy qismlari va ular Insonning milliy individualligini belgilab beradi. Shu bilan birga o‘zini Dunyo fuqarosi sifatida his etish o‘z milliy fuqaroligidan bosh tortishini



anglatmaydi. Inson o'z Vatanning fuqarosi sifatida, o'z xalqining ma'naviy-axloqiy negizlariga ega bo'lgan holda insoniyatga kirib keladi va bunda boshqa xalqlarning milliy individualligini mustasno qilmaydi, balki ularni o'ziniki kabi hurmat qiladi. Insonning Vatanga oliy qadriyat sifatida munosabati uning jamiyat bilan hamkorlik, hamdo'stlik, qayg'udoshlik va qo'llab-quvvatlash tamoyillariga asoslangan o'zaro munosabatlarini qurishining negizidir. Jamiyat bilan o'zaro ta'sirga kirishar ekan, inson dunyo, uni bilish yo'llari to'g'risidagi bilimlarga tayanadi.

Bilimlar – xilma-xil, birinchi navbatda, ijodiy mehnat samarasidir. Keng ma'noda bilim umumiy turdagi o'zlashtirilgan rang-barang ijtimoiy tajriba. Bilimlar tashqi dunyoni bilishga xizmat qiladi, o'z-o'zini anglash va shaxsning faoliyat sub'ekti sifatidagi pozitsiyasini rivojlantirishda foydalaniladi. Bilimlar o'quvchiga o'zini ham Vatan, ham Dunyo fuqarosi sifatida anglashga yordam beradi. Ushbu jihatdan bilimlar o'z Vatani, Dunyo fuqarosi uchun ham birdek muhim universal qadriyat sifatida yuzaga chiqadi.

Yuqorida bayon qilinganlar Inson, Vatan, Bilim kabi qadriyatlarni o'quvchi-yoshlarning fuqarolik pozitsiyasining qadriyatli yadrosi sifatida qayd etishga imkoniyat beradi. Shunday qilib, falsafiy, psixologik va pedagogik adabiyotlar tahlilidan kelib chiqib, biz fuqarolik pozitsiyani shaxsning Insonga, Vatanga, Bilimga bo'lgan ijobiy munosabatini aks ettiruvchi integrativ xarakteristikasi; insonning atrof voqelik bilan sub'ektiv shaxsiy his qilinadigan va bilish, ijtimoiy, ijtimoiy-pedagogik faolligida namoyon bo'ladigan aloqasi deb qarashni ma'qul topdik. Ilmiy manbalarning tahlil natijasida biz o'quvchilarda fuqarolik pozitsiyani rivojlantirishning tuzilmasi quyidagi komponentlardan tarkib topishini ilmiy asoslashga muvaffaq bo'ldik: kognitiv, faoliyatli, qadriyatli.

Fuqarolik pozitsiyaning mezonlari va ko'rsatkichlari "O'quvchi shaxsi + Vatanga sadoqat + ijtimoiy faol fuqaro" qadriyatlar tizimiga muvofiq keladigan barqaror-ijobiy munosabatlarga asoslanib aniqlashtirildi (1-rasmga qarang).

Fuqarolik pozitsiyaning bayon qilingan strukturasi kelib chiqib faol fuqarolik pozitsiyasi rivojlanganligi natijalariga quyiladigan quyidagi talablarni aniqlashimiz mumkin:

- O'zbekistonning tarixiy-geografik obrazini yaratish, jumladan uning hududlari va chegaralari, geografik xususiyatlari to'g'risida tasavvur; davlatchilik va jamiyatning rivojlanishining asosiy tarixiy voqealarini bilish; o'lka tarixi va geografiyasini, uning yutuqlari va madaniy an'alarini bilish;

- ijtimoiy-siyosiy tuzilish to'g'risida obrazni shakllantirish – O'zbekistonning davlat tuzilishi to'g'risida tasavvur, davlat ramzlarini (gerb, bayroq, madhiya) bilish, davlat bayramlarini bilish;

- O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi, fuqarolarning asosiy huquq va majburiyatlarini bilish, davlat-ijtimoiy munosabatlar makonida mo'ljal ola bilish, huquqiy ongning shakllanganligi;

- o'zining etnik mansubligi to'g'risida bilish, milliy qadriyatlarni, an'analarni, madaniyatni o'zlashtirish, yurtimizda yashovchi xalq, millat va elatlar to'g'risida bilish;

- O'zbekistonning umummadaniy merosini va umumjahon madaniy merosni o'zlashtirish;

- axloqiy me'yorlar va qadriyatlar tizimida mo'ljal ola bilish va ularni ierarxialashtiruv, axloqning konvensional xarakterini tushinish;

- vatanparvarlik va o'z mamlakatidan g'ururlanish tuyg'usi, tarixni, madaniy va tarixiy yodgorliklarni hurmat qilish;

- o'z etnik o'xshashligini emotsional ijobiy qabul qilish;

- O'zbekistonda va dunyoda yashovchi boshqa xalqlarni hurmat qilish va qabul qilish; millatlararo bag'rikenglik va teng huquqli hamkorlikka tayyor bo'lish;

- shaxsga va uning qadr-qimmatiga hurmat, atrofdagilarga xayrixohlik, zo'rovonlikning har qanday turiga murosasizlik va ularga qarshi kurashga tayyorlik;

- oila qadriyatlariga hurmat, tabiatga muhabbat, sog'liqning, o'zi va boshka odamlarning qadriyatligini e'tirof etish, dunyoni idrok etishda optimizm;

- axloqiy o'z-o'zini baholash va axloqiy tuyg'ularning – axloqiy me'yorlarga amal qilganda fahrlanish, ularni buzganda esa uyalish va aybni his etishning – shakllanganligi.



Ushbu kontekstda faoliyatli yondashish shaxsning fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish sharoitlarini aniqlab beradi va shaxsning fuqarolik tarbiyasida psixologik-pedagogik tavsiyalar tizimi sifatida qaralishi mumkin:

- o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarishida ishtirok etish (yoshlarning ijtimoiy tashkilotlarida, litseydagi va litseydan tashqari prosotsial xarakterdagi tadbirlarda ishtirok etish);
- o‘quvchilik hayotining me‘yor va talablarini, o‘quvchilarnig huquq va majburiyatlarini bajarish;
- teng huquqli munosabatlar va o‘zaro hurmat asosida dialog olib borish ko‘nikmasi; mojarolarni konstruktiv yechish ko‘nikmasi;
- kattalar va tengdoshlariga nisbatan o‘qishda, uyda va darsdan tashqari faoliyat turlarida axloqiy me‘yorlarni bajarish;
- jamoa ishlarida ishtirok etish (xayriya aksiyalari, mamlakatda va jahonda ro‘y berayotgan voqealarda mo‘ljall olish, madaniy tadbirlarda – muzeylarda, teatrlarda, kutubxonalarda qatnashish, sog‘lom hayot tarzi ko‘rsatmalarini amalga oshirish).

Fuqarolik umumiylikka mansublikni bilish, garchi doimo adekvat bo‘lmasa ham ushbu birlashmaning (hududiy, madaniy, siyosiy va h.k.) aynanlashtiruvchi belgilari, tamoyillari, asoslari to‘g‘risida, fuqarolik va fuqaro bilan davlatning, fuqaro bilan fuqaroning munosabatlari to‘g‘risida tasavvur faol fuqarolik pozitsiyaning shakllanganligi natijasidir. Ularga u yoki bu hududni egallagan, ijtimoiy munosabatlar xarakterini, qadriyatlar tizimini aniqlovchi davlat obrazi, shuningdek o‘z madaniyati, tili va an‘analariga ega bo‘lgan ushbu hududda yashovchi xalq (yoki xalqlar) kiradi. O‘zining qadriyatli afzalliklar tizimida muayyan umumiylikka mansubligi faktining shaxsiy ma‘nosi emotsional-qadriyatli komponent aniqlab beradi. Ushbu komponentning muhim tarkibiy qismlaridan biri o‘z mamlakati uchun iftixor tuyg‘usidir va u fuqarolik mansublikka qadriyat sifatida munosabat qilishning indikator bo‘lib topiladi.

Zamonaviy sharoitlarda muhim fuqarolik sifatlar sirasiga nafaqat insonga erkinlik va mas‘uliyat sharoitlarida oqilona yashashga imkonini beradigan hayotda va kasb tanglashda o‘z o‘rnini aniqlashga qobiliyatlilik, balki milliy-diniy bag‘rikenglikning yo‘qligida, alkogol va narkotiklarni iste‘mol qilishda, zo‘rovonlik va uni targ‘ib qilishda namoyon bo‘ladigan aksilijtimoiy xulq-atvorni tanqid qilishga qobiliyatlilik, shuningdek aksilijtimoiy xulq-atvorning ko‘rinishlariga qarshi tura olishga tayyorgarlik ham kiradi.

Bugungi kunda yangilanayotgan O‘zbekiston jamiyatining taqdiri o‘quvchi-yoshlarnig faol fuqarolik pozitsiyasidan, uning ijtimoiy-siyosiy va ma‘naviy-axloqiy mo‘ljallari bilan bevosita bog‘liqdir. Jamiyatning yashashga



qodirligining va uning progressiv rivojlanishining shart-sharoiti yoshlarning bugungi va kelajaktagi pozitsiyasi va faoliyatidir. Zamonaviy yoshlarning qaysi qadriyatlarni qabul qilishi, qaysilaridan esa yuz ugurishi, ularning katta avlod qadriyatlari bilan nechogʻlik mutanosibligi, anʼanalar vorisiyiligining amalga oshirilishi – bularning barchasi oʻta muhim savollar boʻlib, ularga javob topmasdan nafaqat oʻquvchi-yoshlarning faol fuqarolik pozitsiyasini, balki umumiy fuqarolik madaniyati shakllantirish muammolariga yechim topolmaysiz.

ADABIYOTLAR:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: 2023. 79-m
2. Молодцова И. В. Становление гражданской позиции старших подростков: дис. ... канд. пед. наук. Красноярск, 2007. 224 с.
3. Стрельникова Э. П. Формирование гражданской позиции старшеклассников во внеклассной работе школы: дис. ... канд. пед. наук. Липецк, 2001. 267 с.
4. Крицкая Н.Ф. Формирование гражданской позиции подростка на основе рефлексии в процессе изучения общественных дисциплин: дис. ... канд. пед. наук. Киров, 2005. 214 с
5. Кобелева Т. И. Формирование гражданской позиции учащихся старших классов средствами социального проектирования: дис. ... канд. пед. наук. Самара, 2006. 186 с
6. Караковский В.А. Стать человеком. Общечеловеческие ценности - основа целостного учебно-воспитательного процесса. - М.: Новая школа, 1993.